

## **JADID ADABIY MEROSIDAGI ETNOGRAFIK BIRLIKLARNI ELEKTRON PLATFORMAGA INTEGRATSIYA QILISH MUAMMOLARI**

**Xabibullayeva Gavharxon Nosirjon qizi,**  
*University of Business and Science*  
*Til va adabiyot ta’limi kafedrası o’qituvchisi*  
*Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*  
**[gavharnodirbek1991@gmail.com](mailto:gavharnodirbek1991@gmail.com)**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jadid adabiy merosida uchraydigan etnografik birliklarni zamonaviy elektron platformalarga integratsiya qilishning nazariy va amaliy muammolari tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** etnografizm, jadid adabiyoti, raqamli leksikografiya, korpus lingvistika, semantik teglash, ontologiya, lingvokulturologiya.

**Abstract.** This article examines the theoretical and practical challenges of integrating ethnographic units found in Jadid literary heritage into modern digital platforms

**Keywords:** ethnographism, Jadid literature, digital lexicography, corpus linguistics, semantic annotation, ontology, linguoculturology

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические и практические проблемы интеграции этнографических единиц, встречающихся в джадидском литературном наследии, в современные электронные платформы.

**Ключевые слова:** этнографизм, джадидская литература, цифровая лексикография, корпусная лингвистика, семантическая разметка, онтология, лингвокультурология.

**Kirish.** XX asrning 50-yillaridan boshlab tilshunoslikda “mashina tarjiması”, “mashina tilshunosligi” atamaları qoʻllanila boshlandi [3;4]. Bu asrning buyuk kashfiyoti boʻlgan kompyuter texnologiyalari tilshunoslikka ham kirib kelganining isboti edi [11;4]. Jadid adabiyoti oʻzbek xalqining ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odatları, anʼanalari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu adabiy meros tarkibida keng qoʻllanilgan etnografik birliklar milliy madaniyatning til orqali ifodalanishida muhim oʻrin tutadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari rivoji sharoitida ushbu birliklarni elektron platformalar orqali tizimlashtirish va ommalashtirish dolzarb ilmiy masalaga aylanmoqda.

Har bir millatning tilini uning urf-odatları, anʼanalari va qadriyatlaridan ajratgan holda tasavvur etib boʻlmaydi. Etnografik leksika nomi ostida birlashgan etnografizmlarni oʻrganish milliy urf-odat va qadriyatlar leksikasini tadqiq etishda ahamiyatli. Urf-odatlar muayyan etnosning oʻziga xosliklarini namoyon etib, butun etnografik sistemada differensial vazifa bajarishi bilan tilshunoslik sohasida muhim. Shu bilan birga, etnografizmlarni raqamlashtirish jarayoni oddiy lugʻatlashtirishdan farqli ravishda murakkab lingvistik, semantik va texnologik muammolarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, qulayliklarga ham ega. On-line lugʻatlar – ochiq turdagi internet tizimida ishlaydigan lugʻatlar [12;153]. Bunday lugʻatlarning afzalligi shundaki,

foydalanuvchilarga ushbu lug‘atlar bazasini to‘ldirib boorish, boyitish imkonini beradi. Mazkur maqolaning maqsadi – Jadid adabiy merosidagi etnografik birliklarni elektron platformaga integratsiya qilishda uchraydigan asosiy muammolarni aniqlash va ularning ilmiy yechimlarini taklif etishdan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Matnlar korpusi – elektron holda saqlanadigan ma’lum til birliklari bo‘lib, ular tilshunoslar uchun turli xil muammolarni hal etish uchun tatbiq etishda va turli yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun zaruriyatga qarab turli shakllarda tuziladi. Til birliklarining qay tarzda saqlanishiga qarab maxsus dasturlar yordamida har bir kerakli so‘z yoki so‘z birikmasi uchun darhol uning qo‘llanishi bo‘yicha misollar topilishi, imlo bo‘yicha variantlari, sinonimik qatorlari topilishi mumkin. Matnlar korpusiga oid ilmiy tadqiqotlar salmog‘ining ko‘payishi natijasida tilshunoslikda korpus lingvistikasi yo‘nalishi shakllandi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Leksik-semantik tahlil** — etnografik birliklarning ma’no tuzilishini aniqlashda;
- **Lingvokulturologik yondashuv** — ularning milliy-madaniy mazmunini ochib berishda;
- **Korpus lingvistika usullari** — matnlar asosida birliklarni aniqlash va tizimlashtirishda;
- **Modellashtirish metodi** — elektron platforma uchun ma’lumotlar bazasi yaratishda;
- **Qiyosiy tahlil** — an’anaviy va raqamli leksikografiya yondashuvlarini solishtirishda.

### **1. Etnografik birliklarning lingvistik xususiyatlari**

Jadid adabiyotida etnografizmlar milliy hayotning turli jabhalarini aks ettiradi. Ular quyidagi semantik guruhlariga ajratilishi mumkin:

- urf-odat va marosimlarga oid birliklar;
- kiyim-kechak nomlari;
- taomlar va oziq-ovqat birliklari;
- qarindoshlik terminlari;
- uy-ro‘zg‘or buyumlari.

O‘zbek milliy mentalitetining muhim jihatlaridan biri odamlar turmush tarzi ko‘proq an’ana va urf-odatlar orqali boshqariladi. Masalan, o‘zbekona rasm-rusmlarga qat’iy amal qilgan oilalarda o‘g‘il uylantirish, kelin tanlash, qiz uzatish, kuyov tanlash paytlarida ota-ona va qarindosh-urug‘lardan alohida hushyorlik va e’tibor talab qilinadi. Quda bo‘lmish tomonlar haqida tegishli ishonarli ma’lumotlarga ega bo‘lmaguncha ikki yoshning bir yostiqa bosh qo‘yishiga, oila qurishiga oq fотиha berilmayli. Quda tomonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, jamoada tutgan o‘rni, mavqei va obro‘-e’tibori surishtiriladi. An’analar qadim-qadimdan insoniyat hayotidagi eng yaxshi, ibratli, ayni

paytda, uning turmushi va ijtimoiy faoliyati, mehnati, ibratli hayot saboqlari bilan bog‘liq. Ularni avlod-u ajdodlar uchun yo‘l-yo‘riq darslari desak, yanglishmagan bo‘lamiz [6;23].

Mazkur birliklarning asosiy xususiyati – ularning **milliy-madaniy belgilanganligi** va ko‘pincha boshqa tillarga to‘liq adekvat tarjima qilinmasligidir. Shu jihat elektron platformalarda ularni ifodalashda qo‘shimcha izoh va kontekst talab etadi.

## **2. Elektron platformaga integratsiya qilishning asosiy muammolari**

Etnografizmlar ko‘pincha kontekstga bog‘liq holda turli ma‘nolarni ifodalaydi. Bu esa avtomatik tizimlarda ularni aniqlash va tasniflashni murakkablashtiradi. *Ona* so‘zi turkiy tillarda qon-qarindoshlik termini sifatida bola tug‘ib, katta qilgan, tarbiyalagan o‘z bolasi bor yoki biror shaxsning bolasini boqib, asrab olgan ayolga nisbatan berilgan nom. *Ona* so‘zining qarindoshlik darajasiga ko‘ra etnografizm hisoblanmasa-da nutqda, murojaat usuli sifatida qo‘llash konseksual etnografizm hisoblanadi. Bu murojaat shakli, asosan, hurmat, mehr yoki ehtiromni ifoda etadi va o‘ziga xos ijtimoiy kontekstga ega. Katta yoshlilarga *ona* deyish oila va jamiyat munosabatlaridagi iliqlik va samimiyatni ko‘rsatadi. Bu madaniyatga xos bir ibora bo‘lib, boshqa tillarda yoki madaniyatlardagi ekvivalent murojaatlar bilan farqlanadi:

- *Yanglishmabsiz, oyi.*

*Nega yanglishay, aylanay sizdan, poshsha qiz.* (1;171)

Etnografik birliklarning yozilishi, variantlari va dialektal shakllari turlicha bo‘lishi mumkin. Elektron platformada yagona standartni tanlash zarurati yuzaga keladi. Oddiy izoh etnografizmning to‘liq mazmunini ochib bera olmaydi. Shu sababli har bir birlik uchun kengaytirilgan madaniy izohlar zarur bo‘ladi. Izohli lug‘atda xalqimiz turmush tarzi, madaniyatini aks ettiruvchi leksemalar ko‘p bo‘lsa-da, etnografizm sifatida izohlangan lug‘aviy birliklar sanoqli. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2023) da etnografizmlar berilishi bilan jadidlar asarlarida qo‘llanilgan etnografizmlar solishtirilganda 60 ta so‘z etnografizm sifatida lug‘atda keltirilgan, 270 tasi lug‘atda ma‘nosi izohlangan, 30 tasi lug‘atda uchramaydi. Shuningdek, jadidlar davrida qo‘llangan milliy o‘yinlar nomlari masalan, *oshiq, bedanabozlik, yong‘oq urishtirish, patparak, loy o‘yini, chahor po‘choq, kallakobak, qo‘chqor urishtirish* ham izohli lug‘atda keltirilmagan.

Ikki jildli lug‘atda besh jildli va olti jildli lug‘atlarda etnografizm sifatida berilgan so‘zlardan *qa‘da* va *to‘yona* birliklari uchramaydi. Lug‘atda *domulla* (I, 233), *isiriq solish* (I, 335), *tavanxona* (II, 104), *to‘qqiz* (II, 259), *unashtirish* (II, 276), *qaytarma* (541) leksemalari esa izohlangan, lekin etnografizm sifati berilmagan.

Jadid matnlarining to‘liq raqamlashtirilmaganligi etnografik birliklarni tizimli ravishda yig‘ish imkonini cheklaydi. Shu sababli bu jarayonda texnik muammolar mavjuddir. Texnik muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- avtomatik teglash algoritmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- ontologik modellarni yaratishdagi murakkablik;
- ma’lumotlar bazasini strukturalash muammolari.

### **Integratsiya jarayonining ilmiy yechimlari.**

1. Jadidlar davridagi etnografizmlar to‘planib **semantik teglash tizimini joriy etish** lozim. Har bir etnografik birlik quyidagi atributlar bilan belgilanishi lozim:

- semantik guruh;
- tarixiy davr;
- madaniy kontekst;
- funksional xususiyat.

2. Ontologik model yaratish. Etnografizmlar o‘zaro bog‘liq tushunchalar tizimi sifatida qaralib, ular o‘rtasidagi semantik aloqalar aniqlanishi kerak. Etnografizmlarni elektron platformaga integratsiya qilish jarayonida ontologik model yaratish muhim metodologik bosqich hisoblanadi. Ontologiya doirasida etnografik birliklar oddiy leksik birliklar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan konseptlar tizimi sifatida talqin etiladi. Bunda har bir etnografizm muayyan madaniy tushunchani ifodalovchi semantik birlik sifatida qaralib, u boshqa birliklar bilan turli tipdagi munosabatlarga kirishadi.

Ontologik modellashtirish jarayonida, avvalo, etnografizmlar ma’lum tematik guruhlariga (masalan, urf-odatlar, marosimlar, kiyim-kechak, taomlar, qarindoshlik tizimi va boshqalar) ajratiladi. Keyingi bosqichda ushbu birliklar o‘rtasidagi semantik aloqalar aniqlanadi. Bunday aloqalar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin: *giperonimiya* *giponimiya* (umumiy va xususiy tushunchalar), *meronimiya* (butun-qism munosabati), *assotsiativ bog‘lanishlar* (madaniy kontekst asosidagi aloqalar), shuningdek, funksional va pragmatik munosabatlar.

Masalan, ma’lum bir marosim nomi unga oid atributlar (kiyim, taom, marosim ishtirokchilari) bilan ontologik tarmoqda o‘zaro bog‘lanadi. Shu orqali har bir etnografik birlik izolyatsiyada emas, balki kengroq madaniy tizim ichida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Bu esa elektron platformada bilimlarni strukturalash va foydalanuvchiga kontekstual, chuqur ma’lumot taqdim etish imkonini beradi.

3. Korpus asosida ishlash. Jadid matnlaridan iborat maxsus korpus yaratish va unda etnografik birliklarni avtomatik aniqlash tizimini ishlab chiqish zarur. Bunday korpusni yaratish jarayoni bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, Jadid adabiyotiga oid nasriy, publitsistik va badiiy matnlar to‘planib, ular raqamli formatga o‘tkaziladi.

Matnlar korpusga kiritilishidan oldin filologik jihatdan tekshiriladi, imlo va grafika bixillashtiriladi, metama'lumotlar (muallif, asar nomi, yozilgan sana, janr va boshqalar) bilan boyitiladi. Shuningdek, matnlar lingvistik belgilash (annotatsiya) jarayonidan o'tkazilib, morfologik, sintaktik va semantik teglar bilan ta'minlanadi.

Keyingi bosqichda aynan etnografik birliklarni aniqlashga qaratilgan maxsus modul ishlab chiqiladi. Bu modul milliy urf-odatlar, marosimlar, kiyim-kechak, taomlar, qarindoshlik terminlari, o'yinlar va boshqa madaniy realiyalarni ifodalovchi leksik birliklarni avtomatik tarzda aniqlash imkonini beradi. Buning uchun avvalo etnografizmlarning maxsus lug'ati (tezaurus yoki ontologiya shaklida) yaratiladi. Ushbu lug'at asosida qoidaviy (rule-based) va statistik hamda sun'iy intellektga asoslangan (machine learning, NLP) usullar integratsiyasi orqali aniqlash algoritmlari ishlab chiqiladi. Natijada tizim nafaqat etnografik birliklarni aniqlaydi, balki ularni turkumlash (masalan, "marosim", "taom", "kiyim", "ijtimoiy institut" kabi kategoriyalar bo'yicha) imkonini ham beradi.

**4. Multimodal platforma yaratish.** Elektron platforma quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi kerak:

- matnli izoh;
- vizual materiallar (rasmlar);
- audio va video komponentlar;
- interaktiv bog'lanishlar.

**Natijalar va muhokama.** Kompyuter leksikografiyasi bugungi kunda turli qo'shimcha imkoniyatlar asosida rivojlanib bormoqda. Xususan, dastlab kompyuter lug'atlari bir tilli, ikki tilli bo'lgan, hozirda ko'p tilli (uch, to'rt, olti, o'n tilli) elektron lug'atlar yaratilmoqda. Shuningdek, keyingi paytlarda muayyan sohalarga ixtisoslashgan elektron lug'atlar ham yaratilmoqda. Ya'ni dastlab kompyuter lug'atlari faqat umumiy leksikon bilangina cheklangan edi, hozirda bundan tashqari fanga oid bo'lgan, qurilish, aviatsiya, avtomobilsozlik, harbiy, diniy, yuridik sohalarga oid so'zlar bazasi ham e'tiborga olinmoqda. Hatto so'zlarning matnda qo'llanilish imkoniyatlari, distributiv holatlari, birikma holdagi ko'rinishlari ham nazarda tutilgan holda lug'atlar yaratilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, etnografik birliklarni elektron platformaga integratsiya qilish ko'p bosqichli va kompleks jarayon bo'lib, lingvistik va texnologik yondashuvlarning uyg'unligini talab qiladi. Ayniqsa, semantik teglash va ontologik modellashtirish ushbu jarayonning asosiy komponentlari sifatida ajralib turadi.

**Jadidlar asarlarida qo'llangan etnografizmlarning izohli  
lug'atlardagi qiyosi**

t/r	Lug'at nomlari	Berilishi
1.	O'zbek tilining etimologik lug'ati	130 ta (49.8 %)

**“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK  
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”  
XALQARO ILMIIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

2.	Devoni lug‘atit turk	22 ta (8.4%)
3.	O‘zbek tilining etnografik lug‘ati	70 ta (26.8 %)
4.	O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2023)	172 ta (65.9 %)
5.	Navoiy asarlari lug‘ati	16 ta (6,1 %)
6.	Qadimgi turkiy til lug‘ati	12 ta ( 4,6 %)
7.	O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati	22 ta (8.4%)

**Xulosa.** Jadid adabiy merosidagi etnografik birliklarni elektron platformaga integratsiya qilish o‘zbek tilshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv, ya’ni lingvokulturologik, leksikografik va texnologik metodlarning integratsiyasi zarur. Kelgusida bu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar o‘zbek tilining raqamli rivojiga katta hissa qo‘shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 171.
2. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 274 б.
3. Grishman R. Computational linguistics. Cambridge University Press, 1994. – P. 4.
4. Жаббаров И. Ўзбек халқ этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 311 б.
5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit-turk. Qosimjon Sodiqov nashri. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 258 b.
6. Муродов М., Қорабоев У., Рустамов Р. Этномаданият. – Тошкент: Адолат, 2003. – Б. 23.)
7. Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1991. – 119 б.
8. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 782 б.
9. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 334 б.
10. Пайзиева М. Ўзбекларнинг анъанавий ва замонавий мотам маросимлари. – Тошкент: Янги нашр, 2014. – 176 б.
11. Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2007. – B. 4-5
12. Rahimov A. Kompyuter linvistikasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2011.
13. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3 жилд. – Тошкент: Университет, 2000.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / З.М.Маъруфов таҳрири остида. 1-2-жилд, – М.: Рус тили, 1981. – 632 б.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
16. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.